



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK SEKTORINING KONSENTRATSIYA DARAJASI TAHLILI

**PROGNOZLASHTIRISH VA
MAKROIQTISODIY
TADQIQOTLAR INSTITUTI**

TAYYORLOVCHI

Strategik rejalashtirish hamda
makroiqtisodiy parametrlar
prognozlarini ishlab chiqish
masalalari bo'yicha loyiha

O'zbekiston Respublikasi bank sektorining konsentratsiya darajasi tahlili

Bank sektorining konsentratsiyasi bank xizmatlari bozorida *raqobat darajasini* ifodalaydi. Konsentratsiya darajasi tahlili ma'lum bir davr uchun mamlakat bank sektorining rivojlanish sur'atini baholash imkonini beradi. Bank sektorining konsentratsiya darajasini baholash uchun xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan ko'rsatkichlardan biri **Herfindal-Xirshman indeksi** (Herfindahl-Hirschman index, HHI indeksi) dan foydalaniladi. Mazkur indeks bir qator xalqaro tashkilotlar (Jahon banki¹, Yevropa Ittifoqi², Deloitte³) va aksariyat mamlakatlarning markaziy banklari (Angliya⁴, Rossiya⁵, Irlandiya⁶, Portugaliya⁷) nashrlarida bank xizmatlari bozorida raqobat darajasining ko'rsatkichi sifatida berilgan.

Indeks metodologiyasi

Herfindal-Xirshman indeksi – bu bozorning *monopollashuv (konsentratsiya) darajasi* ko'rsatkichi. Indeks har bir ishtirokchi egallagan *bozor ulushlari kvadratlari yig'indisi* asosida hisoblanadi. HHI ning eng yuqori qiymati 10000ni tashkil etadi. Bu vaziyatda *sof monopoliya* yuzaga kelgan bo'ladi (bozorda bitta firma faoliyat olib borsa, uning ulushi 100% ni tashkil etadi). Demak ushbu vaziyatda indeks 10000 ga teng bo'ladi).

Herfindal-Xirshman indeksining formulasi quyidagicha:

$$HHI = \sum_{i=1}^n S_i^2$$
$$HHI = S_1^2 + S_2^2 + \dots + S_n^2$$

S_i – bozorning har bir ishtirokchisi ulushi.

HHI indeksi qiymatlari bo'yicha bozorlar 3 guruhga bo'linadi:

- *yuqori darajada konsentratsiyalashgan bozorlar* ($1800 < HHI < 10000$);
- *o'rta darajada konsentratsiyalashgan bozorlar* ($1000 < HHI < 1800$);
- *past darajada konsentratsiyalashgan bozorlar* ($HHI < 1000$).⁸

HHI indeksi oddiy konsentratsiya indeksidan (bozor ishtirokchilarining ulushlari yig'indisi) farqli o'laroq *bozordagi vaziyatni to'liq aks ettiradi*. Buning sababi shundaki, *HHI indeksi nafaqat firmalar soni, balki bozor ulushlarining notekisligini* ham inobatga oladi.

Bank sektorining konsentratsiya darajasini baholashda HHI indeksini hisoblash uchun O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritayotgan tijorat banklarining *aktivlar, berilgan kreditlar va jalb qilingan depozitlar* bo'yicha ularning umumiy tarkibidagi ulushlaridan foydalanilgan.

O'zbekiston Respublikasi banq sektorining joriy holati

So'nggi yillarda mamlakatda bank sektorini erkinlashtirish va bank faoliyati sohasida bozor mexanizmlarini kengaytirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Ko'rilayotgan bu chora-tadbirlar *bank tizimi samaradorligini oshirish, xususiy sektor va xorijiy investorlarni jalb qilish hisobiga davlatning ishtirokini kamaytirishga qaratilgan*. 2020-2025 yillarda mamlakatimiz bank tizimini isloh qilish strategiyasida islohotlarning ustuvor yo'nalishlari va maqsadli ko'rsatkichlar belgilangan⁹. Strategiya doirasida xalqaro moliya institutlari ko'magida "Ipoteka-bank" ATIB, "O'zsanoatqurilishbank" ATB, "Asakabank" ATB, AT "Aloqabank",

¹ [Competition in Retail Banking Services in Latin America. World Bank, September 2020](#)

² [Structural Indicators for the EU Banking Sector. European Central Bank, May 2021](#)

³ [CEE Banking M&A Study 2019. Deloitte, November 2019](#)

⁴ [Bank competition and stability in the United Kingdom. Bank of England, August 2018](#)

⁵ [Отчет о развитии банковского сектора и банковского надзора в 2018 году. Банк России, 2019](#)

⁶ [HHI Indicators, Central Bank of Ireland](#)

⁷ [Historical Series Portuguese Banking Sector 1990-2018. Banco de Portugal, October 2020](#)

⁸ [The ABCs of HHI](#)

⁹ [O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.05.2020 y. «2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»qi PF-5992-sonli farmoni](#)

“Qishloq qurilish bank” ATB va “Turonbank” ATBdagi davlat ulushlarini bosqichma-bosqich xususiylashtirish ko‘zda tutilgan. 2025-yilga kelib, bank tizimi aktivlarining umumiy hajmida davlat ulushi bo‘lmagan bank aktivlari ulushini 60 foizgacha oshirish maqsad qilingan. Bu ko‘rsatkich 2022-yilning 1-aprel holatiga ko‘ra 18,9 foizni tashkil etadi.

Banklarni transformatsiya qilish bo‘yicha chora-tadbirlar *xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda amalga oshirilmogda*. Moliya vazirligi, “O‘zsanoatqurilishbank” ATB va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB) o‘rtasida 2021-yilning iyun oyida imzolangan memorandumga ko‘ra YeTTB bankni xususiylashtirishdan oldingi transformatsiyasida 50 million dollar miqdorida kredit liniyasi berish orqali ishtirok etadi. Transformatsiya doirasida taqdim etilgan kredit bankning ustav kapitaliga konvertatsiya qilinadi, natijada YeTTB “O‘zsanoatqurilishbank” ATB aksiyadoriga aylanadi¹⁰. Shuningdek, 2021-yilning sentyabr oyida “Ipoteka-bank” ATIB aksiyalarini kelgusida Vengriyaning “OTP Bank” bankiga sotish bo‘yicha bitim tuzildi¹¹.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlash, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizgacha yetkazish ko‘zda tutilgan (27-maqsad doirasidagi vazifa).¹²

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.03.2022 y. “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiylashtirishni jadallashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-168-sonli Qaroriga muvofiq bank sektorida davlatning ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish doirasida davlat ulushi mavjud tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish va xususiylashtirish ko‘zda tutilgan:

– 2022-yil 1-oktyabrga qadar “Qishloq qurilish bank” ATBning aksiyalarini ommaviy joylashtirish (IPO);

– 2022-yil yakuniga qadar Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Osiyo taraqqiyot bankini jalb qilgan holda “O‘zsanoatqurilishbank” ATB va “Asakabank” ATBning davlat ulushlarini savdoga chiqarish;

– 2023-yil 1-iyulga qadar AT “Xalq banki”, “Mikrokreditbank” ATB, AT “Aloqabank”, “Agro bank” ATB, “O‘zmilliybank” AJlarning aksiyalarini fond birjasi orqali ommaviy joylashtirish (IPO).¹³

Xalqaro valyuta jamg‘armasining 2022-yildagi maslahatlashuvlar bo‘yicha yakuniy bayonotida respublikada bir qator davlat banklaridagi ulushlarni sotish bo‘yicha ishlar davom ettirilishi qayd etilgan. Moliyaviy vositachilik va iqtisodiy o‘sishni moliyalashtirishga samarali yordam beradigan *raqobatbardosh bank tizimini yaratishda davlat banklari islohoti* katta ahamiyat kasb etishi alohida qayd etilgan.¹⁴

Aholi va tadbirkorlarga *chet el kapitali ishtirokidagi banklar* tomonidan ham bank xizmatlari ko‘rsatilmoqda. Bu o‘z navbatida, bank xizmatlarini kengaytirish va sohadagi raqobatni kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, Markaziy bank tomonidan *3ta raqamli bankka* litsenziyalar berildi: “Anor Bank” AJ, “TBC Bank” ATB va “Bank Apelsin” AJ.

2017-2022 yillar uchun yil boshidagi banklar sonining dinamikasi 1-rasmda keltirilgan. 2021-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra respublikada 32 ta tijorat banki faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, ulardan 13 tasi davlat ulushi mavjud banklar edi.


¹⁰ [O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining sayti ma’lumotlari](#)

¹¹ [O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining sayti ma’lumotlari](#)

¹² [O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 y. “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni](#)

¹³ [O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.03.2022 y. “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiylashtirishni jadallashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-168-sonli Qarori](#)

¹⁴ [Xalqaro valyuta jamg‘armasining 2022-yildagi maslahatlashuvlar bo‘yicha yakuniy bayonoti](#)



1-rasm. 2017-2022 yy. O‘zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan banklar soni dinamikasi


Manba: [O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari](#)

2021-yilda bank tizimi tarkibida quyidagi o‘zgarishlar ro‘y berdi:

– iyul oyida Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tasarrufidagi «ASIA ALLIANCE BANK» ATB aksiyalari Gor Investment Ltd (Buyuk Britaniya) kompaniyasiga o‘tkazilgani e’lon qilindi¹⁵;

– noyabr oyida «BANK APELSIN» AJ bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo‘ldi va yangi raqamli bankka aylandi¹⁶.

Natijada, 2022-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, respublika bank sektorida **davlat ulushi mavjud bo‘lgan 12 ta** va yana **21 ta boshqa bank** faoliyat olib bormoqda.



2-rasm. 2017-yilning yanvar oyidan 2022-yilning aprel oyigacha bo‘lgan oraliqda O‘zbekiston Respublikasidagi tijorat banklarining aktivlari, kreditlari va depozitlari dinamikasi, trln. so‘m

Manba: [O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari](#)

Agar 2017-yilning boshida mamlakatimizdagi tijorat banklarining aktivlari hajmi 84,1 trln. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, joriy yilning 1-aprel holatiga ko‘ra 449,5 trln. so‘mga yetgan (5,3 barobar o‘shish). Shuningdek, tahlil qilinayotgan davrda kreditlar hajmi 6,5 barobar, depozitlar hajmi esa 4,1 barobar o‘sgan (2-rasm).


¹⁵ [«ASIA ALLIANCE BANK» ATB saytining ma’lumotlari](#)

¹⁶ [O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki saytining ma’lumotlari](#)

Bank sektorining konsentratsiya darajasini baholashda HHI indeksini hisoblash natijalari

Bank xizmatlari bozoridagi raqobatni baholash doirasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining banklar kesimidagi 2017-yil yanvardan 2022-yil aprelgacha bo'lgan har oylik ma'lumotlari¹⁷ asosida tijorat banklarining aktivlar, kreditlar va depozitlari bo'yicha HHI indeksi hisoblandi.

Tijorat banklari kesimidagi bank sektorining aktivlari tarkibi tahlili konsentratsiya darajasi pasayganini ko'rsatdi: agar 2017-yil 1-yanvar holatiga ko'ra HHI indeksi 1122,2 tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilning 1-aprel holatiga ko'ra 986,9 tashkil etgan. 2017-yilning yanvaridan 2021-yilning avgustigacha indeks o'rta darajada konsentratsiyalashgan bozorlar diapazonida edi. 2021-yil 1-sentyabr holatiga ko'ra indeks 996,9 ni tashkil etdi – bank xizmatlari bozori *past darajada konsentratsiyalashgan* bozorga aylandi (3-rasm).




3-rasm. 2017-yilning yanvar oyidan 2022-yilning aprel oyigacha bo'lgan oraliqda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining aktivlari bo'yicha HHI indeksi dinamikasi

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida hisob-kitoblar

Aktivlar bo'yicha HHI indeksining pasayishi tahlil qilinayotgan davrda *tijorat banklari sonining ko'payishi va respublika bank tizimi aktivlarining umumiy tarkibida ularning ulush ortishi* natijasidir, ya'ni, agar 2017-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 3 ta bankning (O'zmilliybank, O'zsanoatqurilishbank, Asakabank) ulushi bank tizimining barcha aktivlarida 49,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra ularning ulushi 44,7 foizgacha qisqardi. Qayd etish joizki, yuqoridagi 3 ta bank orasida O'zmilliybankning ulushi sezilarli darajada kamaydi: 24,6 foizdan 20,7 foizgacha.

Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar bo'yicha HHI indeksi tahliliga ko'ra, bank sektorining konsentratsiya darajasi 1238,8 dan 1115,9 gacha qisqardi. 2017-yil oktyabr oyidan 2019-yil oxirigacha indeks diapazonning yuqori qismiga yaqinroq edi. 2020-yilning ikkinchi yarmida indeks tahlil qilinayotgan davr boshidagi darajaga tushdi va tobora "o'rta darajada konsentratsiyalashgan bozorlar" diapazonining pastki chegarasiga yaqinlashmoqda (4-rasm).


¹⁷ [O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari](#)



4-rasm. 2017-yilning yanvar oyidan 2022-yilning aprel oyigacha bo'lgan oraliqda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kreditlari bo'yicha HHI indeksi dinamikasi

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida hisob-kitoblar

Tijorat banklari tomonidan jalb qilingan *depozitlar bo'yicha HHI indeksi hisob-kitoblari natijalari bu jihatdan bank sektori past darajada konsentratsiyalashgani hamda banklararo raqobat yil sayin kuchayib borayotganini* ko'rsatdi. 2017-yil 1-yanvar holatiga ko'ra depozitlar bo'yicha HHI indeksi 811,7ni, 2022-yil 1-aprelida esa 727,1 tashkil etdi. Tahlil qilinayotgan butun davr davomida indeks *past darajada konsentratsiyalashgan bozorlar diapazonida* joylashganini alohida qayd etish lozim (5-rasm).




5-rasm. 2017-yilning yanvar oyidan 2022-yilning aprel oyigacha bo'lgan oraliqda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining depozitlari bo'yicha HHI indeksi dinamikasi

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida hisob-kitoblar

Ta'kidlash joizki, depozitlarning umumiy hajmida *davlat ulushi mavjud banklarning ulushi aktivlar va kreditlar bo'yicha ko'rsatkichlarga nisbatan past*: 2022-yilning 1-apreli holatiga ko'ra davlat ulushi mavjud bo'lgan banklarning depozitlar umumiy hajmidagi ulushi 66,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, aktivlar va kreditlar bo'yicha ularning ulushi mos ravishda 81,1% va 85,2% ga teng bo'lgan. Shuningdek, bank sektori depozitlari tarkibida *tijorat banklarining ulushi kengroq taqsimlangan*: 2022-yil aprel oyi boshida depozitlarning 15,9 foizi "O'zmilliybank", 8,8 foizi "Kapitalbank" hisobiga to'g'ri keladi. 5 ta bankning ulushi 7,0-8,4 foiz oralig'ida, yana 4 ta bankning ulushi 3,5-4,5 foiz, 7 ta bankning ulushi 1,5-2,8 foiz, boshqa banklarning ulushi 1 foizdan past.

Dunyo mamlakatlarida bank faoliyatining konsentratsiya darajasi

Rossiya bankining 2013-2018 yillardagi ma'lumotlariga ko'ra, aktivlar va kreditlar bo'yicha bank sektori o'rta darajada konsentratsiyalashgan: 2018-yilda aktivlar bo'yicha HHI indeksi 1300, nomoliyaviy rezident tashkilotlarga berilgan kreditlar bo'yicha esa 1700 tashkil etgan. Rossiya bank sektorining omonatlar bo'yicha konsentratsiyasi yuqori darajada. Ushbu parametr bo'yicha HHI indeksining qiymati 2018-yilda 2300 gacha oshdi¹⁸ (6-rasm).



6-rasm. 2013-2018 yy. Rossiya Federatsiyasi tijorat banklarining aktivlar, kreditlar va omonatlar bo'yicha HHI indeksi dinamikasi

Manba: [Rossiya Banki ma'lumotlari](#)

2018-yil boshida davlat banklarining Rossiya bank sektori aktivlaridagi ulushi 63,1 foizni tashkil etdi. Omonatlarning eng katta hajmiga ega 5 ta bankning jami omonatlar hajmidagi ulushi 65,2 foizni, shu jumladan "Sberbank"ning ulushi 46,1 foizni tashkil etdi¹⁹.

O'zbekiston Respublikasi bank sektorining ko'rsatkichlari bilan taqqoslaganda, 2018-yilda Rossiya Federatsiyasi bank sektorining kreditlar va depozitlar bo'yicha HHI indeksi yuqoriroq bo'ldi: O'zbekistonda kreditlar va depozitlar bo'yicha HHI indeksining o'rtacha yillik qiymati mos ravishda 1539,2 va 860,6, Rossiyada esa 1700 va 2300 tashkil qildi.

Yevropa Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda 7 ta davlatning bank sektori aktivlar bo'yicha yuqori darajada konsentratsiyalashgan edi. Bu mamlakatlarda 5 ta yirik kredit tashkilotining umumiy aktivlardagi ulushi 80,1 foizdan 97,0 foizgacha bo'lgan. Yevropa Ittifoqining 11 ta mamlakatida aktivlar bo'yicha HHI indeksining qiymatlari o'rta darajada konsentratsiyalashgan bank sektori diapazoniga mos keladi. Ushbu mamlakatlarning aksariyatida aktivlarning 65,3-80,5 foizi 5 ta yirik bankka tegishli bo'lsa, faqat Vengriyada bu

¹⁸ [2018-yilda bank sektori rivojlanishi va bank nazorati to'g'risidagi hisobot, Rossiya Banki](#)

¹⁹ [2017-yilda bank sektori rivojlanishi va bank nazorati to'g'risidagi hisobot, Rossiya Banki](#)

ko'rsatkich 50,1 foizni tashkil etadi. Aktivlar bo'yicha HHI indeksiga ko'ra Yevropa Ittifoqining qolgan mamlakatlarida bank sektori past darajada konsentratsiyalashgan va 5 ta eng yirik bankning jami aktivlardagi ulushi 31,6 foizdan 62,4 foizgacha yetadi²⁰.

1-jadval. 2016-2020 yy. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida kredit tashkilotlari aktivlari bo'yicha HHI indeksi

| Mamlakatlar | 2016 y. | 2017 y. | 2018 y. | 2019 y. | 2020 y. |
|----------------------|---------|---------|---------|---------|---------|
| Estoniya | 2 406 | 2 419 | 2 698 | 2 545 | 2 578 |
| Litva | 1 938 | 2 189 | 2 278 | 2 289 | 2 408 |
| Gretsiya | 2 332 | 2 307 | 2 304 | 2 382 | 2 320 |
| Kipr | 1 366 | 1 962 | 2 379 | 2 276 | 2 285 |
| Finlyandiya | 2 300 | 1 700 | 2 570 | 2 420 | 2 250 |
| Gollandiya | 2 097 | 2 087 | 2 178 | 2 039 | 2 001 |
| Latviya | 1 082 | 1 237 | 1 583 | 1 596 | 1 912 |
| Malta | 1 602 | 1 599 | 1 518 | 1 548 | 1 620 |
| Xorvatiya | 1 405 | 1 387 | 1 554 | 1 564 | 1 582 |
| Slovakiya | 1 264 | 1 332 | 1 383 | 1 404 | 1 430 |
| Belgiya | 1 017 | 1 102 | 1 218 | 1 246 | 1 299 |
| Daniya | 1 224 | 1 123 | 1 069 | 1 170 | 1 250 |
| Portugaliya | 1 181 | 1 220 | 1 203 | 1 225 | 1 239 |
| Vengriya | 787 | 802 | 801 | 921 | 1 224 |
| Sloveniya | 1 147 | 1 133 | 1 020 | 1 008 | 1 189 |
| Bolgariya | 939 | 906 | 939 | 992 | 1 133 |
| Chexiya Respublikasi | 1 016 | 1 039 | 1 070 | 1 082 | 1 109 |
| Ispaniya | 937 | 965 | 1 138 | 1 110 | 1 081 |
| Ruminiya | 903 | 915 | 962 | 971 | 997 |
| Irlandiya | 636 | 658 | 632 | 665 | 811 |
| Shvetsiya | 845 | 914 | 785 | 786 | 791 |
| Polsha | 659 | 645 | 683 | 688 | 753 |
| Fransiya | 572 | 574 | 663 | 654 | 688 |
| Italiya | 452 | 519 | 579 | 643 | 675 |
| Avstria | 358 | 374 | 369 | 369 | 407 |
| Germaniya | 277 | 250 | 245 | 277 | 325 |
| Lyuksemburg | 260 | 256 | 261 | 277 | 315 |
| Buyuk Britaniya | 422 | 453 | 353 | 349 | - |

Manba: [Yevropa Markaziy banki ma'lumotlari](#)

O'zbekiston Respublikasi bank sektori bilan taqqoslaganda, 2020-yilda mamlakatimiz bank sektori aktivlari bo'yicha HHI indeksining o'rtacha yillik qiymati 1117,5, Yevropa Ittifoqining 27 ta davlati bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich esa 1321,2 ni tashkil etganini qayd etish mumkin.

Aktivlar, kreditlar va depozitlar bo'yicha HHI indeksini hisoblash asosida O'zbekiston Respublikasi bank sektori konsentratsiyasini baholash natijalariga ko'ra *tijorat banklari o'rtasidagi raqobat yil sayin kuchaymoqda*, ayniqsa, aholi depozitlarini jalb qilish sohasida. Biroq, kreditlar bo'yicha HHI indeksi hozircha past darajada konsentratsiyalashgan bozorlar darajasiga tushmadi. *Davlat ishtirokini qisqartirish, xususiy sektor va xorijiy investorlarni jalb qilish* bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar raqobat muhitini yaxshilash va mamlakatimiz bank sektorini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Elyor Sunnatullayev,
PMTI yetakchi ilmiy xodimi

²⁰ [Structural Indicators for the EU Banking Sector. European Central Bank, May 2021](#)